

**BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA
OILA A'ZOLARINING O'RNI**

*Olimjonova Fotima G'olibjon qizi
NamDU magistranti*

Bugungi kunda bolalarning ma'nан va jismonan rivojlanishida oilaning o'mni beqiyos. Ayniqsa, fanlarga ko'nikmasini shakllantirishda ota-onan yaxshigina ko'makchi bo'lishi muhim.

Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishda bevosita bugungi kunda kompuyster texnikasidan ham foydalish maqsadga muvofiq keladi. Chunki matematik bilimlar, bolaning IQ darajasi, innovatsion rivojlanishi ham bir tomonidan shu zamonaviy kompyuterlarga bog'liq.p[1.B54] Ayniqsa, matematik bilmlarni o'rganish jarayonida kompyuter savod ham chiqa boshlagan va u nima va qanday yo'llarda foydalanish, yaxshi tomonlari nimada ekanini bog'cha yoshidan anglab borgan bolada, o'z aqliy rivojlanishida to'g'ri tarbiya yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki bugungi zamonda kompyuter bu matematika bo'lib bormoqda. Olimlar fikrlariga tayanib, mavzumiz yuzasidan qilingan amaliy ishlar jarayoniga shakllar haqida multimedia yaratdik hamda mashg'ulot jarayoniga kitirdik, shuni aniq aytishimiz mumkinki, bolalar multimedia asosida ishlangan mavzuni oddiy o'tilgan mavzudan ko'ra yaxshiroq o'zlashtira oldilar. Shundan xulosa qilib biz bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda kompyuter texnologiyasi ham birlamchi bo'lish mumkinligini ayta olamiz. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o'qtishning amaliy, ko'rsatmali, og'zaki, o'yin va multimediali usullaridan foydalanshi mumkin. Usulni tanlashda mashg'ulot jarayonlaridagi o'ziga xosliklar mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi. Tarbiyachi usullarni asosli tanlanishiga, usullar aslo bolalar uchun zararli bo'lmasligiga, ularni toliqtirib qo'ymasligiga doimo e'tibor berib turishi lozim. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usul yetakchi usul bo'lib, uning mohiyati bolalarning narsalar bilan ishslash jarayonini osonlashtirishi va aniqlangan usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat: aqliy faoliyat uchun asos bo'ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish; didaktik materiallardan keng foydalanish; didaktik materiallar bilan amaliy ishslash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo'lishi; eng elementar usulda sanash, o'lhash va hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish; turmush, o'yinda, mehnatda, ya'ni faoliyatning har xil turlarida shakllangan tasavvur va o'zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.[2.B67]

Bunday usuldan foydalanish bolalarda individuallikni taqazo etadi. Har bir mashg‘ulot tartibsizdek ko‘rinadi, xuddi bolalar vaqtlarini bekor o‘tkazyotgandek tuyiladi, ammo ular o‘yin yordamida ko‘p narsani egallay boshlaydilar. Faqatgina tarbiyachidan ularni nazorat qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish talab etiladi, xolos. Mashg‘ulotlar turlicha bo‘lishi mumkin, buni tarbiyachi dastur asosida lekin erkinlikka yo‘naltirilgan tarzda ifoda eta bilishi lozim. Mashg‘ulotlar hamma bolalar bir vaqtida yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajaradigan yakka tarzda bo‘lishi mumkin. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolalar oldiga fikrlashni, tafakkurni ishlatishni talab qiladigan savollarni qo‘yadi: Nima uchun doira yumalaydi-yu, kvadrat yumalamaydi? Bolalar izlanishlari uchun vaqt va imkon beriladi, bu vaqt oraligida javobga undovchi ma’lumotlar ham berib boriladi.[2.B89]

Kvadrat bo‘ylab barmog‘ingizni yurgizib chiqing. Qarang, bu shaklda nima bor?, bolalar bevosita kuzatgan narsalarini o‘z nutqlarida aks ettirib, amaliy tajriba yo‘li bilan bilimga ega bo‘ladilar. Shu bilan fikrni og‘zaki bayon qilish shaklning unda ifodalangan mazmundan ajralib qolishiga, ya’ni bilimlarni yuzaki o‘zlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Bunday yoshdagagi bolalar ba’zan so‘z va iboralarni aniq narsalarga, ularning xususiyatlariga bog‘lamasdan osongina eslab qoladilar. Birinchi mashg‘ulotlardan boshlaboq mazkur guruh bolalari oldiga ularning harakatlarini muayyan maqsadga yo‘naltiradigan bo‘lish vazifalari qo‘yiladi. Mashg‘ulotlar bolalarning yoshiga qarab qiyinlashtirib boriladi. Ular bir necha bo‘g‘inlarda tashkil topadi. O‘quv-bilish mazmuniga oid mashg‘ulotlar muammo shaklida emas, ko‘pchilik hollarda ularni bajarish uchun tasavvur bo‘yicha harakat qilish, topqirlikni namoyish qilish, aqlilikni ko‘rsatish talab qilinadi. Misol uchun, tarbiyachi kichik guruhdagi bolalardan har qaysi quyonni sabzi bilan siylashni taklif qiladi, katta guruhdagi bolalardan esa, doskaga osib qo‘yilgan kartochkadagi doirachalar nechtaligini aytishni, guruh xonasidan xuddi shuncha buyum topishni, kartochkadagi doiralar miqdori bilan guruhdagi narsalar miqdori teng ekanini isbotlashni taklif qiladi. Mujassam mashg‘ulotlar eng samaralidir, chunki ular dasturning har xil bo‘limlariga doir masalalarni bir vaqtida bir-biri bilan tarkiban birga hal qilish imkonini beradi. Masalan, «Geometrik figuralar», «Kattalik», «Miqdor va sanoq» bo‘limlariga oid masalalarni bir vaqtida hal qilish imkonini beradi.[3.B221] Bu xil mashqlar mashg‘ulotlarning samarali bo‘lishiga yordam beradi. MTTlarda bunday mashg‘ulotlardan keng foydalaniladi, bunday mashqlar tufayli zarur faoliyat usullari bajariladi: sanoqni, o‘lchashni, eng sodda hisoblashni egallash amalga oshiriladi; bir qator elementar matematik tasavvurlar shakllanadi. Mashg‘ulotni tanlashda ularning tarkiban bir mashg‘ulotda birga hal qilinishinigina emas, balki istiqboldagisi ham

hisobga olinadi. Bir mashg‘ulotdagi mashqlar sistemasi yil davomida o‘tkaziladigan har xil mashqlarning umumiy sistemasiga tarkiban qo‘silib ketishi kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta’limga tayyorlash // Maktabgacha ta’lim. - T.: 2005. №2.
2. Бабушкина Т.М. Математика. Нестандартное обучение. Изд.торговый дом «Корифей», 2009.
3. Bikbaeva N.U. Ibragimova Z.I. Qosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» - Т. «O‘qituvchi» 1995.